O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 24 - fevral 63-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Guliston shahar “Bo‘ston” MFY hududidan ko‘p qavatli uylarni issiqlik bilan ta’minlash maqsadida issiqlik inshooti (RK-2 mahalliy qozonxona) qurish uchun davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-465-sonli qarori 3-bandi v)-kichik bandi ijrosi yuzasidan va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10 va 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Ko‘p xonadonli uylarni mukammal va joriy ta’mirlash hamda issiqlik ta’minoti obyektlarni qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi davlat unitar korxonasining 2023-yil 5-yanvardagi Guliston shahar “Bo‘ston” MFYda RK-2 mahalliy qozonxona qurish obyektlarining loyihaoldi hujjatlarini tayyorlash uchun qisqa muddatlarda quriladigan qozonxona binosiga yer ajratish to‘g‘risidagi 08/01-4-sonli murojaati qanoatlantirilsin hamda viloyatning tegishli tashkilot va korxonalarining ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va Uy-joy kommunal xo‘jaligi

vazirligi Ko‘p xonadonli uylarni mukammal va joriy ta’mirlash hamda issiqlik ta’minoti obyektlarni qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi davlat unitar korxonasiga, Guliston shahar “Bo‘ston” MFY hududining shahar hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan ko‘p qavatli uylarni issiqlik bilan ta’minlash maqsadida issiqlik inshooti (RK-2 mahalliy qozonxona) qurish uchun 9 m x 38 m o‘lchamda A1724401009/6 raqamli 0,0342 gektar yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Ko‘p xonadonli uylarni mukammal va joriy ta’mirlash hamda issiqlik ta’minoti obyektlarni qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi davlat unitar korxonasi (L.Sharapov)ga:

Ajratilgan yer uchastkasida qurilishi rejalashtirilgan issiqlik inshooti (RK-2 mahalliy qozonxonalar) qurish uchun belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazilishi hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-sonli qarorini 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGASHKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda issiqlik inshooti (RK-2 mahalliy qozonxonalar) qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Karimov va viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b **A.Mahmudaliev**